

O'ZBEKISTONDA CHIQUINDILAR MUAMMOSINI HAL ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Fayzullayev B¹, Xudoyberdiyev J.R², Xayitov E.P³

^{1,2,3}Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6465147>

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo miqyosida eng asosiy ekologik muammolaridan biri, bu atrof tabiiy muhitning chiqindilar bilan ifloslanishidir. Hozirgi paytda yer yuzida chiqindilar miqdori yildan-yilga ko'payib bormoqda. Chiqindilarning paydo bo'lishi, bevosita insoniyatning faol iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqdir. Garchi, bu muammo XXI-asrga kelib global ahamiyat kasb etgan bo'lsada, aslida uning ildizi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, XIX-asrga qadar chiqindi muammosi global darajadagi muammolar qatoriga kirmas edi. Chunki avvallari insonlar kundalik hayotda, asosan tez parchalanib ketadigan va atrof-muhitga mutlaqo zarar yetkazmaydigan tabiiy materiallardan foydalanishgan. Lekin insoniyat taraqqiyoti rivojlanishi, sanoatning keskin rivojlanishi ushbu muammoning kelib chiqishiga asosiy omil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida yer yuzida ming yillar davomida parchalanadigan sintetik va boshqa turli xil va turli tarkibga ega bo'lgan chiqindilarning paydo bo'lishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, buning natijasida esa turli hil kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kela boshladi. Shuni unutmashimiz kerakki, chiqindilarning yillar davomida to'planib borishi hozirgi kunda va kelgusida insonlarning hayoti uchun o'ta xavfli muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun hozirdanoq buning oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rishimiz zarur.

Kalit so'zlar: Chiqindilar muammosi, maishiy, sanoat, qishloq xo'jaligi chiqindilari, aholi, islohotlar, Yashil makon.

Chiqindilar—ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish jarayonida hosil bo'lgan xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, o'zga buyumlar yoki mahsulotlarning qismlari, shuningdek, o'z iste'mol qilish xususiyatlarini yo'qotgan tovarlar (mahsulotlar)^[1]. Bugungi kunda chiqindilar muammosi dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bo'lgan. Bizga ma'lumki chiqindilar kimyoviy tarkibiga ko'ra organik va noorganik, ta'sir etishiga ko'ra zaharli va zaharsiz, agregat holatiga ko'ra esa qattiq, suyuq va gazzimon holatda bo'ladi. Shuningdek, ularni hosil bo'lishiga ko'ra uch guruhga ajratishimiz mumkin. Jumladan:

1.Maishiy chiqindilar — ular ko'proq uy sharoitida paydo bo'ladi. Garchi, qattiq maishiy chiqindilar odamzodning asosiy muammolaridan hisoblanmasada,

biroq axlat, shisha, qog'oz, organik chiqindilar umumiy hisobda atrof tabiiy muhitning ifloslanishida salmoqli o'rinni egallaydi.

2.Sanoat chiqindilari — statistik ma'lumotlarga ko'ra, sanoat chiqindilari eng xavfli chiqindilar qatoriga kiradi. Atrof-muhitning, aynan sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi global ekologik muammolardan biri hisoblanadi.

3.Qishloq xo'jaligi chiqindilari — bu guruh chiqindilar yog'och qipig'i, chorva mollari axlatlari, o'simliklar chirindisi kabilarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash mumkin.

Hisob kitoblarga ko'ra, so'nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari salmog'i yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ushbu chiqindilarning hosil bo'lishida atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat, qora va rangli metallurgiya, yoqilg'i-energetika, qurilish industriyasi va qishloq xo'jaligi tarmoqlari asosiy o'rinlarni egallab kelmoqda^[2]. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bugungi kunda chiqindilarning 800 dan ortiq turi qayd etilgan bo'lib, insoning xo'jalik faoliyati natijasida dunyo bo'yicha yiliga 105-110 mlrd tonnaga yaqin chiqindilar hosil bo'lishi olimlar tomonidan qayd etilmoqda. Shu bilan birga ularning soni va hajmining kelgusida yana ham ortishi bashorat qilinmoqda. Xalqaro hukumatlararo tashkilot BMT ma'lumotiga ko'ra esa, dunyo aholisi sonining ortishi shu tarzda rivojlanadigan bo'lsa, demografiya 2050-yilda 9,7 milliardga, 2100-yilda esa 11,2 milliardga yetishi mumkinligi kutilmoqda. Shuningdek ma'lumotlarda keltirilishicha, hozirgi paytda dunyo aholisining 55 foizi shaharlarda istiqomat qilayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu raqam 70 foizga yetishi bashorat qilinmoqda. Bu esa albatta katta va kichik shaharlarda chiqindilar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi haqida bashoratlarni yuzaga chiqarmoqda. Agar biz bugungi kunda dunyo miqyosida maishiy chiqindilar miqdorini har yili aholi jon boshiga 1 foizga oshayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu muammoni hal etish bo'yicha tezkor choralar ko'rishimiz zarurligini anglab yetishimiz va buni oldini olishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishimiz zarur. Agar bunday qilmasak, yaqin yillar davomida chiqindilar muammosi butun dunyo ekologiyasiga yanada jiddiy xavf tug'dirishi mumkinligini unutmashimiz zarur. Yuqorida keltirilayotgan bu muammo bizning yurtimizni ham chetlab o'tmaydi albatta. Hozirgi kunda bunyodkorlik, qurilish maydoniga aylangan yurtimiz O'zbekistonda ham bu muammoning oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda yiliga 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindisi, 35 million tonnaga yaqin maishiy chiqindilar

hosil bo'lmog'unda^[3]. Shuning uchun bugungi kunda bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash, maishiy chiqindilarni yig'ish, saralash va qayta ishlash borasida qator islohotlarni amalga oshirish zarur. Bunday islohotlar yurtimizda allaqachon birinchi prezidentimiz I.A.Karimov (1938-2016y) tomonidan yo'lga qo'yilgan va sohaga oid qonunlar, qaror va farmonlar belgilab berilgan bo'lib, 2002-yil 5-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'grisidagi" qonuni shular jumlasidandir. Ushbu qonunda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tartibi, sohaga mas'ul tashkilotlarning vakolatlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari aniq qilib belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda bu islohotlarni keyingi bosqichlarini amaldagi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev amalga oshirib kelmoqda. Xususan, joriy yilning 2021-yil 2-fevral kuni davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev raisligida «Chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash» va «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda ham ushbu yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan masalalar aniq qilib belgilab berildi. Shu bilan birga yig'ilishda joriy 2022-yilda maishiy chiqindilarni to'plash qamrovini 95 foizga, qayta ishlash hajmini 40 foizga va bu borada xususiy sektor ulushini 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, soha uchun zarur bo'lgan 500 ta maxsus transport sotib olish, ko'p qavatli uy-joylar loyihasida sanitariya-gigiyenik talablar asosida zamonaviy chiqindi yig'ish shaxobchalari qurish talabi shaharsozlik normalariga kiritilishi zarurligi, import qilinadigan maxsus texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bojxona bojidan 3 yilgacha ozod etilishi, saralash va qayta ishlash texnikasi xaridi uchun 5 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratilishi va qayta moliyalashtirish stavkasidan oshgan qismi qoplab berilishi, chiqindini qayta ishlashga qodir klasterlarga yer, mol-mulk va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilanishi, 1-oktyabrga qadar ijtimoiy muassasalar va bozorlarga 8 mingta, kelgusi yil 1-mayga qadar 11 mingta konteyner o'rnatish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, yurtboshimiz o'z nutqida quyidagilarni so'zladi: "Yoshligimizdan bilamizki, otalarimiz hovlini, atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. "Birni kessang, o'nni ek" degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI-asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi

kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish, bugun ko'chaga yoki istalgan joyga qarang hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko'rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Axir, muqaddas kitoblarimizda ham "Poklik iymondandur" deyilgan. Nega bu masalada ommaviy axborot vositalari, mahalla faollari bong urmayapti? Qani nuroniylarimiz, jamoatchiligimiz? Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Mahallada, ko'chalarda chiqindi tashlagan kishini ko'rganda "bu ishingiz noto'g'ri bo'ldi", deydigan muhitni shakllantirishimiz, odamlarni bunga o'rgatishimiz kerak. Bu-hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir" dedi. Shuningdek o'tkazilgan yig'ilishda keltirilishicha, O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasi yaxshilanishi natijasida maishiy chiqindilarning miqdori yiliga 2 foizga ortib borayotgani va yillik hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar miqdori esa 7 million tonnaga yetgani aytiladi. Bu esa yurtimizda chiqindilar miqdorining dunyo miqyosida o'rtacha ko'rsatkichidan oshib borayotganini bildiradi. Maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi bo'yicha Andijonda 45 foiz, Buxoroda 43 foiz, Navoiy va Namanganda 36 foizni tashkil etib, ushbu hududlarda yaxshi natija ko'rsatilayotganligi aksincha, Qoraqalpog'iston 10 foiz, Farg'ona va Qashqadaryo 20 foiz bilan qolgan hududlardan orqada ekanligi keltirildi. Shuningdek, yig'ilishda so'ngi yillarda chiqindilarni olib chiqish qamrovi 90 foizga yetgan bo'lsada (2017-yilda atiga 25 foiz edi), 781 ta mahallada 30 yildan buyon chiqindini olib chiqish masalasi hal etilmagani tanqid qilindi. Umuman olganda, yurtboshimiz tashabbuslari bilan olib borayotgan islohotlardan shuni ko'rish mumkinki, bu islohotlar zamirida avvalo insonlarning ekologik xavfsizligi va atrof-muhit mussaffoligini ta'minlash, ona tabiatni asrash, uning ne'matlaridan tejamkorona oqilona foydalanish, aholi o'rtasida ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirish va ushbu sohada yaqin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish eng muhim ustuvor vazifa etib belgilanganligi yurtimizda har bir inson qadrini naqadar ulug'lanayotganligidan dalolatdir. Albatta bu islohotlar bilan birgalikda, sohada xalqaro tajriba va hamkorlikning ham ahamiyati katta ekanligini alohida e'tiborga olishimiz zarur. Xususan, 2022-yil 23-fevral kuni Markaziy Osiyo davlatlari bo'lgan Qozog'istonning Ostona shahrida «Plastik trendlar, xatarlar va imkoniyatlar» mavzusida xalqaro konferensiyasi shular jumlasidandir. Ushbu konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlaridan soha

mutaxassislari, ekspertlar, davlat idora va tashkilotlari mas'ullari, turli kompaniya vakillari, mahalliy hamda xorij OAV xodimlari ishtirok etishib tadbir avvalida «Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish omillari», «Barqaror rivojlanish va plastik chiqindilar», «Plastik chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash borasida Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya Federasiyasi tarjibasi» kabi mavzularda qator ma'ruzalar qilindi. Albatta bu kabi xalqaro aloqalar o'zaro hamkorlik va tajriba almashinish ushbu sohaning yana ham rivojlanishi va kelajakda yuzaga keladigan muammolarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida qayd etish zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda insonlarning biosferaga ta'siri keskin ortib ketdi. Xususan, inson tabiatning barcha tabiiy resurslaridan nooqilona foydalanishi natijasida ishlab chiqarish jarayoni jadallashdi. Shuningdek, ishlab chiqarish texnikalari tomonidan ishlab chiqarish jarayonida tabiat resurslarini to'laligicha foydalanmasligi, qayta ishlamasligi natijasida ulkan chiqindi maydonlari, poligonlari va uyumlari vujudga keldi. Bundan tashqari aholi sonining ortishi natijasida bu holat yanada jadallashdi. Shu bilan birga insonlarning ehtiyojlari va resursga bo'lgan talabini hisobga olib aytadigan bo'lsak, yillar davomida insonlarning xo'jalik faoliyatidan chiqadigan maishiy chiqindilar hajmining ham asta sekin orta borganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, chiqindilar muammosi yildan-yilga global darajada va xavfli tus olmoqda. Bizga ma'lumki sanoat chiqindilari va inson tomonidan hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar turlicha tarkibga ega bo'lib, ular shu jihati bilan ham xavfli hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda hosil bo'layotgan chiqindilarni turlicha tarkibga ega ekanligi va uning ta'sirida tirik organizmlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar (turli kasalliklar)ni dunyo olimlari hali to'laligicha o'rgangan emas. Shuning uchun biz chiqindilar muammosi masalasiga bee'tibor bo'lmasligimiz kerak. Shu bilan birga aholi o'rtasida ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish uchun turli tadbirlarni tashkil etishimiz, avvalo oilada, mahallada, maktablarda, jamoatchilik, televideniya sohaga oid turli videoroliklar tayyorlab insonlarning ma'naviy savodxonligini oshirishimiz, insonlarga va yosh avlodlar ongida chiqindilarni belgilangan maxsus joylarga tashlash kerakligini uqtirishimiz, o'rgatishimiz zarur. Bu bilan biz atrof-muhitni ifloslanishini oldini olayotganimizni va bu chiqindilarning ayrim turlaridan ikkilamchi mahsulot sifatida insonlar uchun zarur bo'lgan biron-bir xo'jalik mahsulotning yaratilishiga sababchi bo'lishimiz mumkinligini barchaga qisman bo'lsada ko'rsatib bergan bo'lamiz. Unutmashimiz kerakki, ona tabiatni asrab-avaylash

uning ne'matlaridan oqilona foydalanish barchamizning eng oliy burchimizdir. Zero, biz kelajak uchun javobgarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Эргашев А., Руденко И., Давлетов С., Азизов А., Акиншина Н., Эшчанов Р., Каримов Б., Царук О., Волков А., Ботман Е., Рахимов А., Салихов П., Мамбетуллаева С., Ходжаева Г., Бегдуллаева Т. Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари^[1]. Тошкент -2016у.
- 2.Turobjonov S.M., Niyazova M.M., Tursunov T.T., Pulatov X.L., Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi^[2]. Toshkent -2011у.
- 3.Musayev N.M., Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari^[3]. Toshkent -2011у.
- 4.Qudratov O. Sanoat ekologiyasi 2-nashr. Toshkent -2003у.
- 5.Yormatova D. Sanoat ekologiyasi. Toshkent -2007у.
- 6.O'zbekiston Respublikasi 2002-yil 5-apreldagi "Chiqindilar to'g'risida"gi 362-II-son qonuni.